UDK 17.022:323(575.1)

GLOBALLASHUV VA GLOBAL ONGNING SHAKLLANISHI

F. X. Yuldasheva

Maqolada global ong muammosi o‘rganilgan. Integratsiya asosida globallashuvning yuzaga kelishi, uning xususiyatlari va globallashuv sharoitida global ongning shakllanishi, global ongning xususiyatlari tahlil etilgan. Global ong shakllanishining omillari, funksiyalari, ziddiyatlari tavsiflab berilgan. An’anaviy ongning zamon talablariga javob bera olmaydigan, progressiv hodisalarni aks ettira olmaydigan eski va dogmatik elementlaridan ozod bo‘lishda global ong yordam beradi. Globallashuv qonuniy va obyektiv bo‘lgani kabi global ongning rivojlanishi ham obyektiv va qonuniydir. Globallashuv rivojlanib borgani sari global ong ham taraqqiy etib boradi.

Kalit so‘zlar: *globallashuv, ijtimoiy ong, global ong, integratsiya, aksiologik ong, jamoaviylik, vorisiylik, planetar ong, axborotlashuv.*

В статье рассмотрена проблема глобального сознания. Исследовано возникновение глобализации на основе интеграции, особенности глобализации и формирование глобального сознания в условиях глобализации, особенности глобального сознания. О характеризованы факторы, функции и противоречия формирования глобального сознания. Глобальное сознание помогает традиционному сознанию освободиться от старых и догматических элементов, которые не отвечают современным требованиям и не отражают прогрессивные явления. Как глобализация является закономерной и объективной, так и развитие глобального сознания является объективным и закономерным. С развитием глобализации развивается и глобальное сознание.

Ключевые слова: *глобализация, общественное сознание, глобальное сознание, интеграция, аксиологическое сознание, коллективизм, наследие, планетарное сознание, информатизация.*

Kirish

Globallashuvni o‘rganish davomida shu narsa ma’lum bo‘ladiki, ushbu jarayon boshqa ijtimoiy hodisalarga nisbatan o‘z mohiyatini o‘ta o‘zgartirib turishi, keng qamrovliligi hamda dunyo hamjamiyatida bo‘lib o‘tayotgan hodisalar bilan kuchli bog‘langanligi, o‘ta ziddiyatli ekanligi bilan farqlanadi. Globallashuvning bunday kuchli dinamikasi unga tegishli bo‘lgan masalalarning tobora o‘zgarib, almashinib va ko‘payib borayotganida ko‘rinadi.

Material va metodlar

Globallashuv jamiyatning barcha sohalarida turli muammolarni yuzaga keltirdi. Ulardan biri – global ong muammosidir. Aslida global ong subyektlarning aralashuvisiz ham globallashuv ta’sirida tabiiy holda shakllanib boradi. Bunday holatni materiya ta’sirida ong yoki ijtimoiy borliq ta’sirida ijtimoiy ongning shakllanishi kabi obyektiv yuzaga chiqqan jarayonlar bilan solishtirish mumkin. Global ong ijtimoiy ruhiyat, aksiologik ong va ijodiy ongni birlashtiradi. Bunday ongning faoliyati globallashuv jarayonini aks ettiruvchi farazlar, g‘oyalar va xulosalarni, yangi sharoitda tanlab olingan va aksiologik baholanayotgan qadriyatlarni, global dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.

Ma’lumki, falsafiy adabiyotlarda yozilishicha, ijtimoiy ongning darajalarini ijtimoiy ruhiyat va ijtimoiy mafkura tashkil etadi. Fikrimizcha, global ongni ham ular qatoriga qo‘shish mumkin. Demak, global ong hozirgi davrda mavjud ijtimoiy ongning darajalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda va uning shakllanishi obyektiv hamda qonuniy jarayondir. Global ongning asosiy funksiyasi global o‘zgarishlar jarayoniga

mos keluvchi va o‘z vaqtida ularga javob bera olish qobiliyati va potensialiga ega bo‘lgan global dunyoqarashni aks ettirishdan iborat. Global ong hozirgi zamonning o‘ziga xos xususiyatlari: turli sivilizatsiyalar, madaniyatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar aloqadorligi, o‘zaro munosabatlarining turli qirralari, ziddiyatlari, dinamikasi va tendensiyalarini o‘zida ifoda etadi, global dunyoqarash shakllanishining asosini tashkil etadi. Global ongni o‘rganish dialektika, sinergetika metodlari va tizimli tahlil yondashuviga asoslanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Natijalar va ularning tahlili

Global ongning asosiy funksiyasi jamiyat va uning a’zolari ijtimoiy hayotida amalga oshayotgan hodisalarni aks ettirish bilangina cheklanib qolmaydi. Global ong in’ikos etish funksiyasi bilan birga globallashuv oqibatida kelib chiqayotgan va millatning ijtimoiy-ma’naviy hayotiga salbiy ta’sir etishi mumkin bo‘lgan ayrim hodisalarni ilgaridan faraz qilgan va his etgan holda ularni real baholay olishi, zarur bo‘lganda ularga qarshi turishi, bu sohada farazlar berishi, salbiy oqibatlari va tendensiyalarini oldindan anglab etishi, ularni hal etish mexanizmlarini taklif etishdan iborat, lozim bo‘lganda, milliy ma’naviy hayot va qadriyatlarni himoya etish salohiyatiga ega bo‘ladi. Ya’ni global ong oldiga global hodisalarga faol va ijodiy yondashgan holda “xavfli vaziyatlarda” salohiyatini realizatsiya qila olish qobiliyatiga ega bo‘lish talabi qo‘yiladi.

Global ong tobora integratsiyalashib borayotgan butun dunyo sivilizatsiyasining xususiyatlari, mohiyatini ifoda etadi va global qarashlar, g‘oyalar, yondashuvlar majmuasini tashkil etadi. Uning amaldagi funksiyasi ikki xil yo‘nalishni, ya’ni global muammolarni in’ikos ettirish va bu sohada shaxsni ma’lum faoliyatga yetaklash orqali namoyon bo‘lishi mumkin. Ikkinchi yo‘nalishi ko‘proq globallashuv dinamikasi va tendensiyalariga nisbatan shaxsning munosabati (ularga rozi bo‘lish, ular bilan kelishish va moslashish yoki zarur bo‘lganda ularga qarshi kurashish)ni anglatadi. Insoniyat taraqqiyotining kelgusi tendensiyalarini ham faraz qilish, ularning natijalari va oqibatlariga jamiyatni ma’lum ma’noda tayyorlash kabilar ham global ongning funksiyasiga kiradi.

Global ong bugungi jamiyat madaniyatining ajralmas qismiga aylangani holda, uning asosiy xususiyati optimizm, ruhiy ko‘tarinkilikdan iborat bo‘lishi, o‘zi esa optimistik intensiya (ongning yo‘nalishi, moyilligi) va pozitivlik asosiga qurilgan bo‘lishi jamiyatning madaniy-ma’naviy taraqqiyotida katta ahamiyatga ega. Bu narsa global ong uchun gumanistik ochiqlik, bag‘rikenglik va shu bilan birga o‘z manfaatlari doirasida pragmatizm va ehtiyotkorlik, negativlar doirasida pozitivni izlab topish, yangiliklarga moslashuv va himoya qila olish qobiliyatlariga ega bo‘lishiga imkon yaratadi.

Global ong doim globallashuvning yo‘nalishlari, natijalarini o‘rganib borishi, ularni tanqidiy qarab chiqishi, zarur bo‘lganda ularni jamiyatning progressiv taraqqiyoti uchun ijobiy tomonga yo‘naltirishi kerak. Global ong ushbu o‘zgarishlar va tendensiyalardan orqada qolib ketmasligi, aksincha, ushbu o‘zgarishlarga ijodiy yondashgan va ulardan o‘zib ketgan holda o‘zgarishlarni ilgariroq anglay olishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ammo, ta’kidlash zarurki, hozirgi kunda global ong ushbu o‘zgarishlarni ularga mos ravishda faol ifoda eta olayotgani yo‘q va u global reallikdan ancha orqada qolmoqda. Ya’ni global ong doirasidagi bugungi taraqqiyot darajasida yuz berayotgan o‘zgarishlar ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlardan ancha orqada.

Falsafiy nuqtayi nazardan olib qaraganda, ong, ijtimoiy ong va global ong borliq, jamiyatga nisbatan ikkilamchi, ya’ni ularni in’ikos ettiruvchi hodisalardir. Bu jihatdan ularning funksiyasi birlamchi hodisaga ergashish va in’ikosdan iborat bo‘lish kerak. Shu bilan birga ong, ijtimoiy ong va global ong ba’zan ulardan o‘zib ketgan holda, mavjud reallikka ijodiy yondashuv asosida ilgarilab ketgan aks ettirish funksiyasini amalga oshirishi lozim. Bu holat falsafada ongning faolligi hodisasi sifatida qaraladi. Umuman, ularning ikkilamchi hodisa sifatida obyektiv reallikdan keyinda “ma’lum masofada” yurishi tabiiy hol. Lekin obyektiv reallik va ong o‘rtasidagi ushbu masofaning yiroqlashib ketishi ong bilan bog‘liq hodisalarning va asosan in’ikos ettirishning ancha orqada qolib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Yuqorida aytilgan fikrlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, globallashuvning sur’atlari to-

bora tezlashib borayotgan hozirgi kunda global ong va uning asosini tashkil etuvchi aksiologik ongning globallashuv jarayoni va global muammolarni o‘z vaqtida anglab etishi jamiyatning kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega.

Ta’kidlash kerakki, global ongning asosini tashkil etuvchi omillardan biri qadriyatli ongdir. Uning asosiy vazifasi narsa va hodisalarni qadrliligi va subyekt uchun ahamiyatliligi nuqtayi nazaridan baholashdan iborat. Ma’lumki, globallashuvning turli subyektlari tomonidan qadriyatli ong tizimini majburiy tarzda o‘zgartirish va unga salbiy elementlarni kiritishga qaratilgan faoliyat olib borilayotganligi bu tizimning kuchli transformatsiyaga uchrashiga sabab bo‘lmoqda. Bunday sharoitda global ongning qadriyatlarni to‘g‘ri anglashi, to‘g‘ri baholay olishi zarurligi yoki ularning mohiyatini amaldagiga nisbatan o‘ta yuqori baholashi mumkinligi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarning kelib chiqishi tabiiy.

Albatta, bunday vaziyatda qadriyatli ongning mohiyati yanada globallashib boradi. Faylasuf olim Q.Nazarovning yozishicha, har qanday davrning o‘ziga xos qadriyatlar tizimi mavjud bo‘lib, “...jamiyatning ijtimoiy barqaror rivojlanish holati o‘ziga mos barqaror qadriyatlar tizimini shakllantiradi, bu tizim esa o‘z navbatida ana shu barqarorlikning ma’naviy jihatlaridan biriga aylanadi. Jamiyat beqaror bo‘lib qolganida, unda nomutanosibliklar ko‘payib, ular biror-bir tarzda yuzaga chiqayotganida shu davrning qadriyatlar tizimi ham beqaror bo‘lib qoladi. U jamiyatni asosiy subyektlarining hamjihatligini ta’minlaydigan ma’naviy mezon sifatidagi ahamiyatini yo‘qota boshlaydi” [1. B. 153]. Globallashuvning nisbatan ochiq va beqaror jarayon ekanligini hisobga olsak, jamiyatda qadriyatlarni barqarorlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar yuzaga kelishi muqarrar.

Globallashuvning aksiologik ongga ta’siri ikki xil bo‘lishi mumkin: bunday ta’sir ostida qadriyatli ongning strukturasi, ya’ni: 1) unga asos bo‘lib xizmat qiluvchi qadriyatlar tarkibining tubdan o‘zgarishi va 2) modernizatsiya natijasida kirib kelayotgan yangi qadriyatlar hisobiga uning iyerarxiyasi o‘zgarib borishi mumkin [2, 3]. Shunday qilib, globallashuv jarayonida qadriyatlar transformatsiyasi va unga mos ravishda aksiologik ong ham o‘zgarib, tobora globallashish xususiyatiga ega bo‘lib borar ekan.

Yuqorida qayd etilganidek, qadriyatli ongning asosiy vazifasi baholash bo‘lsa-da, obyektni baholash bilan bir qatorda u yana himoya funksiyasini ham bajaradi. Hozirgi davrga kelib ushbu vazifani global ong amalga oshirmoqda. Aksiologik ongning tarkibini tashqaridan majburiy o‘zgartirishga harakat qilinganda, bu holat uning tarkibida salbiy transformatsiya yuz berishiga olib keladi. Bunday vaziyatda qadriyatli ong o‘z mohiyatini o‘zgartirib, “...maksimalizm va ekstremizm xususiyatiga ega bo‘lgan va konfliktli vaziyatlarni aks ettiribgina qolmasdan, uni keskinlashtirishga ham qodir bo‘lgan agressiv milliy ongga aylanishi mumkin. Chunki u qanchalik oddiy (primitiv) bo‘lmasin (“yot madaniyat” vakillariga nisbatan dushmanlik shiori, “biz – ular”ning keskin qo‘yilishi), “dushman qiyofasi” ommaviy ongda tez o‘z ifodasini topadi” [4. B. 77–78].

Insonning boshqa madaniyatga, tabiatga, tarixga va umuman jamiyat hayotiga munosabati masalasi globallashuv davrida yangicha yondashuvni talab etadi. Bu masala global ong doirasida gumanistik va teng huquqli madaniyat plyuralizmi asosida qayta ko‘rib chiqilishi kerak. Shu bilan bir qatorda insonlar, millatlar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning barcha millatlar va davlatlarga mos keluvchi va ularning manfaatlariga xizmat qiluvchi tamoyillari hozirgi davr talablari va globallashuv jarayonining ta’siri nuqtayi nazaridan qayta tahlil etilishi lozim.

Alohida shaklda mavjud bo‘lgan barcha madaniyatlarning qo‘shilgan, ya’ni sintezining xususiyatlari va munosabatlarini global ong tomonidan to‘g‘ri in’ikos ettirilishi uning asosiy funksiyalaridan biridir. Bu munosabatlarning markazida gumanizm, madaniyatlararo teng huquqlilik hamda plyuralizmga asoslangan dialog turishi va unda barcha ishtirokchilar teng bo‘lishining shartligi global ong shakllanishining asosiy tamoyillaridan birini tashkil etadi. Global muammolar, ziddiyatlar va global xatarlar tobora ko‘payib borayotgan hozirgi sharoitda qayd etilgan masalalar yanada dolzarblik kasb etmoqda.

Global ong hal etishi lozim bo‘lgan asosiy muammo – globallashib borayotgan dunyoda

inson, uning o‘rni, mas’uliyati va maqsadlarini to‘g‘ri aks ettirish va maqsadli yo‘naltirish, oriyentatsiyani to‘g‘ri belgilash muammosidir. Barcha harakatlarning markazida inson qadri turgani holda jamiyatdagi barcha harakatlar va intilishlar inson hayotini yaxshilashga qaratilgandir. Globallashuvning barcha yutuqlari, imkoniyatlari va ijobiy tendensiyalari inson kelajagini yaxshilash uchun yo‘naltirilishiga erishish har qanday mamlakatning progressiv taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Global ongga xos bo‘lgan xususiyatlardan yana biri uning jamoaviyligida namoyon bo‘ladi. Bu xususiyatning mohiyati har bir tarixiy davrda turlicha namoyon bo‘lgan. Global ongni shakllantirish uchun sharoitlar ijtimoiy taraqqiyotning deyarli barcha davrlarida ham bo‘lgan. Ma’lumki, ibtidoiy jamoa tuzumi davrida jamoaviylikka xos bo‘lgan ong shakli mavjud bo‘lgan. Ammo bunday jamoaviy ongning shakllanishi hozirgi global ongning shakllanishidan farq qilgan, chunki bu jarayon tabiiy yo‘l bilan, subyektlarning aralashuvisiz yuz bergan. Insoniyat taraqqiyotining bu davrida kishilar ongida globallilikka xos bo‘lgan xususiyatlar bo‘lgan, ammo ular o‘sha davr rivojlanishiga mos tarzda cheklangan edi.

Globallashuv ba’zan olib kelishi mumkin bo‘lgan ko‘pchilikka ergashuvchanlik, ommaviy madaniyatga ergashish, hamma qatori bo‘lishga intilish jamoaviylik xususiyati bilan qo‘shilishining natijalari doim ham ijobiy bo‘lavermaydi. Ushbu masala haqida A.Erkayev bunday yozadi: “Fikran kimgadir qaram bo‘lgan yoki dunyoqarashi cheklangan kishi o‘z ekzistensial holati va ehtiyojlarini ham, jamiyat hayotidagi ijtimoiy-tarixiy zaruriyatni ham to‘liq anglay ololmaydi, bir yoqlama tushunadi. Kundalik hodisalarni tahlil etib mustaqil xulosa chiqarishga qiynaladi. O‘zgalarning fikrlarini tanqidiy baholay olmaslik oqibatida boshqalarning ortidan ko‘r-ko‘rona ergashish yoki intuitiv harakat qilishga odatlanib qoladi. Buning oqibati hamma vaqt ham yaxshi bo‘lavermaydi. Bu hol inson erkinligini cheklab, uni tasodiflarga yoki o‘zgalar irodasiga qaram qilib qo‘yadi” [5. B. 6].

Globallilikka salbiy xususiyatdan ko‘ra ko‘proq ijobiy xususiyatlar xosdir. Umuman olib qaraganda, bu jarayon – progressiv jarayon. Globallilik kelib chiqishining determinanti – integratsiya. U esa ijobiy va qonuniy jarayondir. Demak, uning natijasida yuzaga chiqqan hodisalar ham faqat salbiy bo‘la olmaydi. Globallashuvning salbiy tomonlari nisbiydir va bu jarayonning mohiyatini ulargina belgilamaydi. Uning mohiyatida ko‘proq ijobiy tomonlari namoyon bo‘ladi.

Global ongning shakllanishida muhim rol o‘ynagan omillardan biri axborot inqilobidir. Axborot inqilobi evolyutsion yo‘l bilan bosqichma-bosqich va insoniyatning taraqqiyoti bilan teng holatda bordi. Bu inqilob insonning intellektual salohiyatini va imkoniyatlarini tubdan o‘zgartirib yubordi. U bir necha bosqichlarni bosib o‘tdi: tilning kelib chiqishi, yozuvning kashf etilishi, kitob nashr etilishi, radio va televideniyening tashkil topishi va tarqalishi hamda oxirgi bosqich – kompyuter, multimedia va Internetning kashf etilishi [6. B. 377–378].

Albatta, bunday inqilob o‘zining muammolarini ham olib keldi. Chunki global ongning shakllanish jarayoni va bu jarayonning rivojlanish sur’atlari uning himoya mexanizmining global o‘zgarishlarni anglash, ularga moslashish va zarur bo‘lganda ularga qarshi kurash borasida faoliyat olib borish sur’atlaridan tezroq bormoqda. Bundan tashqari global ongning ijtimoiy-madaniy hayotda yuz berayotgan chuqur o‘zgarishlarga nisbatan reaksiyasining sur’atlari ham bunday o‘zgarishlarning o‘ziga nisbatan orqada qolmoqda. Ayniqsa, milliy ongning va milliy qadriyatlar tizimining global ong taraqqiyotiga mos ravishda “javoblari”ning shakllanishi yoki aniqroq aytadigan bo‘lsak, uning global zamon talablariga va savollariga “hozirjavobligi” ham ancha orqada.

Global ongning shakllanish jarayoni o‘z-o‘zidan va qarshiliklarsiz yuz bermaydi. Hozirgi davrga qadar bunday jarayon obyektiv ravishda davom etgan bo‘lsa-da, jamiyat bu jarayonning ayrim salbiy jihatlariga an’anaviy milliy qadriyatlar tizimi orqali qarshi chiqa olgan. Chunki har qanday jamiyat ma’lum qadriyatlar tizimiga o‘rganib qoladi va ular asosida rivojlanadi. Shu sababli ham jamiyat kirib kelayotgan barcha yangiliklarga qarshi o‘zining ma’lum usullari yordamida kurashadi. Har qanday jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotida o‘ziga xos himoya tizimi mavjud. Ushbu tizim asosan milliy, axlo-

qiy, diniy, ilmiy, estetik, siyosiy va huquqiy qadriyatlardan tarkib topgan bo‘lib, u jamiyat hayotiga tashqaridan kirib kelayotgan modernizatsiyaga qarshi “to‘siq” vazifasini bajaradi. Buning natijasida har qanday yangilik, hatto u progressiv mohiyatga ega bo‘lganida ham, “og‘riqli” qabul qilinadi. Bundan tashqari, ijtimoiy ongdan mustahkam o‘rin egallagan kundalik odatlar, turmush tarzidagi o‘ziga xos axloqiy qonun-qoidalar, jamoa tomonidan qabul qilingan tartiblar ham himoya tizimi vazifasini bajargan.

Asrlardan beri mavjud bo‘lgan avlodlar o‘rtasidagi bog‘liqligi, vorislik tamoyillari, oilaviy munosabatlar va avlodlar o‘rtasidagi aloqalar global zamon ta’siri ostida o‘zgarib boradi. Bunday oilaviy, qarindosh-urug‘chilik sohasidagi o‘zgarishlar ham ijtimoiy o‘zgarishlar qatori global ongning shakllanishiga ta’sir etadi. E.Tofflerning fikricha, sivilizatsiyalarning o‘zaro munosabati va yaqinlashuvi ma’naviy hayotda planetar ongning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi: “Ikkinchi to‘lqin manfaatlari milliy mafkuraning asosini tashkil etgan va lokal darajadagi manfaatlardan ustun turuvchi odamlarning qatlamini paydo qilganidek, Uchinchi to‘lqin ham manfaatlari milliy manfaatlardan ko‘ra kengroq kishilarning shunday guruhini paydo qildi. Bu kishilar ba’zan “planetar ong” deb nomlanuvchi global mafkurani olib keldilar.... Millatchilik millat nomidan gapirar edi, globallashuv butun dunyo nomidan so‘zga chiqmoqda. Va uning paydo bo‘lishi evolyutsion zarurat bo‘lib, faqat Yernigina emas, balki butun Koinotni qamrab oluvchi “kosmik ong” shakllanishining bosqichi bo‘ldi” [7. B. 521–522].

Y.V.Yakovesning fikricha, planetar ong butun dunyoni qamrab olgan globallashuv jarayonlarini bilish hamda milliy manfaatlar oldida umumplanetar, umuminsoniy manfaatlarning ustunligini tushunishni taqozo etadi [6. B. 347]. Bu borada, ayniqsa, dinning paydo bo‘lishi, jahon dinlarining tarqalishi va uni jamiyatning ijtimoiy sohasida asosiy rol o‘ynovchi omillardan biriga aylanishi global ongning shakllanishi jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Chunki din o‘zining dunyoqarashlik, birlashtiruvchilik va regulyativ funksiyalari orqali kishilar hayotini yanada yaqinlashtirdi va birxillashtirdi. Bunday birxillashuv global ong uchun zarur edi. Global ong kishilarning ko‘p sohalarda o‘xshash fikrlash va xatti-harakatlarning ham birxillashuviga olib keladi. Bunday o‘xshashlik tashqaridan kelgan ta’sir va yangilikning o‘rnashib qolishi uchun qulay zamin yaratadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan omillarga moddiy ishlab chiqarish omillari qo‘shilganda bunday ta’sir yanada kuchli bo‘lishi mumkin. Ya’ni global ong moddiy jihatdan kuchli bo‘lgan millatlar, davlatlarning madaniy-ma’naviy qadriyatlarini qabul qilish zarur, degan fikrga moslashadi va o‘rganib qoladi. Bu narsa jamiyat uchun tabiiy holga, odatiy tartibga aylanib boradi va jamiyatning ongida aks etadi. Bunday odatiy tartibni yanada kuchayib borishiga globallashuv sharoitida tug‘ilib o‘sgan yangi avlodning dunyoqarashi va madaniyati ham ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, avlodlar o‘rtasidagi bog‘liqlik va vorislikning globallashuv sharoitida kamayib borishi ham globallashuv va global ong foydasiga xizmat qiladi.

Aytish zarurki, avlodlar o‘rtasidagi bog‘liqlik masofasining zamondagi chegaralari kollektivizm xos bo‘lgan an’anaviy jamiyatlarda deyarli bir avlodning yoshiga, ya’ni 25–30 yilga teng bo‘lgan. Ammo bu holat hozirga kelib keskin o‘zgargan. “Haqiqatdan ham hozirgi tez o‘zgarib borayotgan dunyoda 10–12 yilga farq qiluvchi yoshdagi kishilarni har xil avlodlarga tegishli deb hisoblash mumkin, ular shunchalik bir-biriga o‘xshamaydigan sharoitlarda shakllanmoqdalar. Agar avval avlodlarning jismoniy almashinuvi (yuz yillikda to‘rt marta) hayotning o‘zgarib borishi sur’atlari bilan mos tushgan bo‘lsa, hozirda o‘zgarishlar tezligi kishilarning ularga moslashib borishi tezligidan o‘zib ketdi. Bular hammasi kishilarda kelajakka ishonchsizlik tug‘diradi; ular o‘rtasida ko‘proq tushunmovchilik, begonalik paydo bo‘ladi; siqilish va konfliktli vaziyatlar yuzaga keladi” [8. B. 186]. Bu fikrdan shunday xulosa kelib chiqadiki, avlodlar o‘rtasidagi vorisiylikka asoslangan birbirini tushunish, tarixiy meros va milliy-tarixiy xotiraga nisbatan munosabat ham o‘zgarib boradi. Bularning natijasida globallashuv jarayonining sur’atlariga mos ravishda jamiyatda tarixiy-milliy qadriyatlarga nisbatan global qadriyatlarning ahamiyati oshib boradiki, bu hol globallashuv jarayonining ziddiyatli oqibatlaridan biri sanaladi.

Global ongni tizimli va turli fanlar doirasida kompleks yondashuv asosida o‘rganish talab qilinadi. Aynan globallashuv jarayonida ijtimoiy hayotning bir butunligi namoyon bo‘ladi. Ushbu butunlik tizimi chegaralarida progressiv megamadaniyat va gumanistik multimadaniyat siyosatini olib borgan holda, kattami-kichikmi – har bir millatning betakror xususiyatlarini va o‘ziga xosligini saqlab qolishga erishish progressiv kelajakka xizmat qilish demakdir.

Bu yerda O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning quyidagi so‘zlarini keltirish o‘rinlidir: “Har qanday millat, u naqadar kichik bo‘lmasin – insoniyatning boyligidir va har qanday milliy birlikning uning til, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo‘q bo‘lib ketishi Yer yuzidagi madaniy va genetik fondning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi. Shu bois har bir etnik birlikni saqlab qolish unga mansub odamlarning eng muhim maqsadi bo‘lmog‘i kerak. Va bu maqsad, birinchi navbatda, ushbu etnik guruhni o‘z ichiga oluvchi har bir alohida davlatning vazifasidir” [9. B.73–74].

Hozirgi kunda jamiyatning ijtimoiy ongida globallilik xususiyatining namoyon bo‘lishi tendensiyasi ko‘zga tashlanmoqda. Globallilik ijtimoiy ongda alohida bir qatlam sifatida ifoda etiladi, deb aytish mumkin. “Hozirgi ijtimoiy ongning uchta qatlami mavjud: madaniy xotira bilan bog‘langan an’anaviy (ong-meros), kishilarning shaxsiy tajribasi ta’sirida shakllangan empirik (ong – in’ikos) va “fikrlar fabrikasi” ta’siridagi texnologik (ong – natija) qatlamlar [10. B. 74].

Global ongning ijobiy jihati shundaki, u an’anaviy ongdagi hozirgi zamon talablariga javob bera olmaydigan, zamonga mos tarzda progressiv hodisalarni aks ettira olmaydigan eski va dogmatik unsurlardan ozod bo‘lishga, “qutulishga” yordam beradi.

Qayd etib o‘tganimizdek, an’anaviy milliy ongga jamoaviylik ruhi xos. Aslida an’anaviy ong global ongga nisbatan qarshilik xususiyatiga ega bo‘lishi kerak. Biroq, qizig‘i shundaki, har qanday an’anaviy ongga jamoaviylik xos bo‘lganligi sababli ham uning bu xususiyati globallilikning rivojlanishiga imkon yaratadi. Chunki bunday ong doirasida yangi g‘oyalar, kirib kelayotgan yangi madaniyat elementlari elementlari nisbatan tezroq tarqaladi. Jamoaviy ongga qandaydir boshqalarga o‘xshashga intilish, ko‘pchilikning orqasidan ergashish, ko‘pchilikdan ajralib qolishdan qo‘rqish kabi xususiyatlar xos. Bu xususiyatlarga qo‘shimcha qilib, yuqorida aytib o‘tilganidek, kirib kelayotgan barcha yangiliklarni, madaniyatning yangi elementlarini boshqalar qatori qabul qilmaslik jamiyatga unchalik “yoqmasligi” e’tiborga olinsa, ijtimoiy ongning jamoaviylik xususiyati globallashuvning rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatishi va unga imkon yaratishiga yana bir marta amin bo‘lamiz.

Xulosa

Hozirgi davrda shunchaki global ongning shakllanishi haqida gapirishning o‘zi kamlik qiladi. So‘nggi paytlarda ko‘proq “global axborot ongi” iborasi qo‘llanilmoqda. Global axborot ongining shakllanishi millatlar va madaniyatlar, sivilizatsiyalar o‘rtasida axborot almashinuv imkoniyatlarini kengaytirdi. Yangi texnologiyalar – internet, televideniye, uyali aloqa va boshqa shu kabilarning rivojlanishi shaxsning madaniy va intellektual taraqqiyoti uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu jarayon “axborot globallashuvi” nomi bilan ko‘pchilikka tanish. Axborot globallashuvi turli jamiyatlarning madaniy sohada yaqinlashuviga yordam beradi. Bunday yaqinlashuvga mos ravishda global ong shakllanishi jarayonining sur’atlari yanada tezlashadi.

Global ong nimaga asoslanishi lozim? Monologmi yoki dialogmi? Demokratik jamiyatda o‘zaro munosabatlarda biror bir davlat yoki millat tomonidan bir tomonlama monolog albatta hech kimni qoniqtirmaydi. Har qanday demokratik jamiyat millatlararo va davlatlararo dialogni taqozo etadi. Global ong gumanistik dialogga asoslangan holda rivojlanishi va shu bilan birga doim ijodga, yangilanishga intilishi kerak. Chunki har qanday kichik millat ham jahon sivilizatsiyasida o‘z o‘rniga va o‘z ovoziga ega bo‘lishni istashi uning oddiy, tabiiy istagi hamda talabidir.

Demak, globallashuv jarayoni qanchalik qonuniy va obyektiv bo‘lsa, global ongning shakllanishi va rivojlanishi ham shunchalik obyektiv va qonuniydir. Globallashuv rivojlanib va chuqurlashib borgani sari global ong ham taraqqiy etib boradi.

Adabiyotlar:

1. *Назаров Қ.* Қадриятлар фалсафаси (аксиология) – Тошкент: Файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2004. – 196 б.
2. *Бестужев-Лада И.* Альтернативная цивилизатsiя: актуальность социологического осмысления // Социология на пороге XXI века. – Москва,1999.
3. *Чешков М.А*. Глобальное видение и новая наука. – Москва: Научно-образовательный форум по международным отношениям, 2005. – 224 с.
4. *Митрохин Л.Н.* В.С.Степин и проблемы философии культуры // Вопросы философии, 2004. – № 9. – С.70–81.
5. *Эркаев А.* Тафаккур эркинлиги // Тафаккур, 2005. – № 2. – Б.12–19.
6. *Яковец Ю.В*. Глобализация и взаимодействие цивилизаций. – Москва: Экономика, 2003. – 412 с.
7. *Тоффлер Э.* Третья волна. – Москва: АСТ, 1999. – 800 с.
8. *Бессонов Б.Н*. Гуманизм и духовное развитие общества. – Москва: Издательство РАГС, 2006. – 699 с.
9. *Каримов И.А*. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 306 б.
10. Философия истории. / Под ред. А.С.Панарина. – Москва: Гардарики, 1999. – 432 с.

GLOBALIZATION AND FORMATION OF GLOBAL CONSCIOUSNESS

Farida Kh. Yuldasheva[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 7(75). 5-12.

[1] Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: globalization, social consciousness, global consciousness, integration, axiological consciousness, community, succession, planetary consciousness, information.

The article examines the problem of global consciousness. The emergence of globalization based on integration, features of globalization and the formation of global consciousness in the context of globalization are explored. Global consciousness is studied as a result of the process of globalization. The factors, functions and contradictions of the formation of global consciousness are characterized.

Global consciousness helps traditional consciousness to free itself from old and dogmatic elements that do not meet modern requirements and do not reflect progressive phenomena.

What should global consciousness be based on? Monologue or dialogue? In a democratic society, a one-sided monologue of a state or a nation in mutual relations does not satisfy anyone, of course. Any democratic society requires inter-national and inter-state dialogue. Global consciousness should always be developed on the basis of humanitarian dialogue, with the pursuit of creativity and innovation.

Global consciousness expresses the characteristics and essence of an increasingly integrated world civilization and constitutes a set of global visions, ideas and approaches. Global consciousness should always study the directions and results of globalization, look at them with a critical eye, and if necessary, direct them in a positive direction for the progressive development of society. It would be desirable for the global consciousness not to lag behind these changes and trends, but to be able to anticipate them by creatively approaching them and overcoming them.

Global consciousness and axiological consciousness, which is its basis, are of strategic importance for the future of society in today's era, when the pace of globalization is accelerating.

The impact of globalization on axiological consciousness can be of two types: under such influence, the structure of valuable consciousness, i.e.

1) a fundamental change in the structure of values that serves as its basis and

2) its hierarchy may change due to the impact on the new consciousness. values introduced as a result of modernization. Thus, in the process of globalization, the values change and, accordingly, the axiological consciousness changes and becomes more and more global.

The question of the attitude of a person to another culture, nature, history and the life of society in general requires a new approach in the era of globalization. This issue should be re-examined on the basis of pluralism of humanistic and egalitarian culture within the framework of global consciousness. At the same time, it is necessary to re-analyze the principles of mutual relations between people, nations and cultures that are suitable for all nations and states and serve their interests in terms of the requirements of today's era and the impact of globalization processes.

References:

1. Nazarov, Q. (2004) *Qadriyatlar falsafasi (aksiologiya)* [Philosophy of values (axiology)]. Tashkent: Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti.

2. Bestujev-Lada, I. (1999) Alternativnaya civilizatsiya: aktualnost' sociologicheskogo osmysleniya [Alternative civilization: the relevance of sociological understanding]. *Sociologiya na poroge HKHI veka*. Moscow.

3. Cheshkov, M. (2005) *Globalnoe videnie i novaya nauka* [Global vision and new science]. Moscow: Nauchno-obrazovatelnyj forum po mezhdunarodnym otnosheniyam.

4. Mitrohin, L.N. (2004) V.S.Stepin i problemy filosofii kultury [V.S. Stepin and problems of philosophy of culture]. *Voprosy filosofii*. No 9. Pp.70-81.

5. Erkayev, A. (2005) Tafakkur erkinligi [Freedom of thought]. *Tafakkur*. No 2. Pp. 12-19.

6. Yakovec, Yu.V. (2003) *Globalizaciya i vzaimodejstvie civilizacij* [Globalization and interaction of civilizations]. Moscow: Ekonomika.

7. Toffler, E. (1999) *Tretya volna* [Third wave]. Moscow: AST.

8. Bessonov, B.N. (2006) *Gumanizm i duhovnoe razvitie obshchestva* [Humanism and spiritual development of societ]. Moscow: Izdatelstvo RAGS.

9. Karimov, I.A. (1997) *O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari* [Uzbekistan on the threshold of the 21st century: threat to security, conditions of stability and guarantees of development]. Tashkent: Uzbekistan.

10. Panarina, A.S. (ed.) (1999). *Filosofiya istorii* [History of philosophy]. Moscow: Gardariki.

Muallif haqida ma'lumot:

YULDASHEVA Farida Xo'jamqulovna – falsafa fanlari doktori (DSc), Andijon davlat universiteti Falsafa kafedrasi professori. E-mail: adu_yuldasheva@mail.ru